

<b>Terms</b>	<b>Atamalar</b>	<b>Izoh</b>
<b>Mapping</b>	<b>Akslantirish</b>	$f - A$ to'plamda berilgan binar munosabat bo'lsin. Agar $\forall x, y, z \in A$ lar uchun $(x, y) \in f$ va $(x, z) \in f$ bo'lishidan $y = z$ kelib chiqsa, u holda $f$ binar munosabat akslantirish (funksiya) deyiladi.
<b>Linear mapping of U vector space to V vector space</b>	<b>U vektor fazoning V vektor fazoga chiziqli akslanishi</b>	<p><math>\mathcal{F}</math> sonlar maydoni ustida aniqlangan U vektor fazoning V vektor fazoga akslantiruvchi <math>\varphi</math> akslantirish uchun ushbu</p> <ol style="list-style-type: none"> <li><math>\varphi(\bar{x}_1 + \bar{x}_2) = \varphi(\bar{x}_1) + \varphi(\bar{x}_2)</math>,</li> <li><math>\varphi(\lambda \bar{x}) = \lambda \varphi(\bar{x}) \quad (\lambda \in F)</math></li> </ol> <p>shartlar bajarilsa, u holda U vektor fazo V vektor fazoga chiziqli akslanadi deyiladi</p>
<b>Operator</b>	<b>Operator</b>	U vektor fazoni o'z-o'ziga akslantirish U fazoda aniqlangan operator deyiladi.
<b>Linear operator</b>	<b>Chiziqli akslantirish</b>	U vektor fazoni o'z-o'ziga chiziqli akslantirish U fazoda aniqlangan chiziqli operator deyiladi.
<b>Additive operator</b>	<b>additiv operator</b>	U vektor fazoning ixtiyoriy $\bar{x}_1$ va $\bar{x}_2$ elementlari va U da aniqlangan $\varphi$ operator uchun $\varphi(\bar{x}_1 + \bar{x}_2) = \varphi(\bar{x}_1) + \varphi(\bar{x}_2)$ tenglik bajarilsa, u holda $\varphi$ ga U da aniqlangan additiv operator deyiladi.
<b>Zero operator</b>	<b>Nol operator</b>	Agar $\forall \bar{x} \in U$ uchun $\varphi(\bar{x}) = 0$ tenglik bajarilsa, u holda $\varphi$ operatorga nol operator deyiladi.